

FITRAT IJODINING O'ZBEKISTONDA O'RGANILISHI

Farg'ona davlat universiteti

1. bosqich magistranti

Gulnozaxon Raxmonova

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdurauf Fitrat ijodining O'zbekistonda o'rganilishi va tahliliga bag'ishlangan. Unda Fitratning boy adabiy merosi, jadidchilik harakatidagi hissasi, dramaturgiya va nasriy asarlarining mavzusi hamda uslubiy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mustaqillik yillarida Fitrat ijodi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, o'zbek adabiyoti, jadidchilik, dramaturgiya, ma'rifatchilik.

Insoniyat tarixida shunday daho san'atkorlar bo'lganki, ular o'z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag'on tufaylima'naviyatimiz tarixidan yulib tashlanganiga qaramay, ular merosini o'rganish, asarlarida ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy masalalarni tadqiq etish bugungi istiqlool sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, bu ulug' adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi fidoyi adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) o'zbek adabiyoti va madaniyatining eng yorqin vakillaridan biridir. Uning ijodi xalqning milliy ongini shakllantirish, ma'rifat orqali taraqqiyotga yetaklash g'oyalariga asoslangan. Fitratning serqirra ijodi she'riyat, dramaturgiya, nasr va ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi. Sho'ro davrida qatag'on qilingan bu buyuk siymo ijodining mustaqillik yillarida qayta o'rganilishi milliy adabiyotimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Fitratning adabiy merosi uning she'riyati, nasriy asarlari va dramaturgiyasini o'z ichiga oladi. Fitrat she'riyatida milliy uyg'onish va ma'rifatchilik g'oyalari aks etgan.

Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin: 1-davr 1909-1916-yillarni o'z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan. 2-davr 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol g'oyalari bilan to'yingan asarlar yozadi. Ijodining 3-davri 1923-1937-yillarga oid bo'lib, Sho'ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo'lgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shug'ullanadi.

Fitrat ijodini batafsil tahlil qilish jarayonida uning yozgan asarlari va ilmiy ishlari xalqning ma'naviy uyg'onishiga qaratilgani aniqlanadi. U millatning ma'naviy kamolotini o'zining ijodiy ishlari orqali ilgari surgan. Fitratning asarlari zamonamiz uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ular ma'rifiy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Fitrat ijodini o'rganishda turli xil qarashlar mavjud. Serqirra iste'dod sohibi bo'lgani bois adibni shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos, musiqa, tabobat, matematika deyarli barcha sohada qalam tebratganiga guvoh bo'lamiz. Shu bois ijodini o'rganishda xilma-xilliklar mavjud.

Fitrat ijodining o'zbekistonda o'rganilishida A.Aliyev, B.Qosimov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev va boshqalar tadqiqotlar mavjud.¹

Fitrat ijodini o'rganishni akademik Ilhom G'aniyev 4 guruhga ajratib ko'rsatgan.

1. Fitratning o'zi tirikligida hayoti va ijodini o'rganish.
2. 1938 -yil 4-oktyabrdan - stalincha qatag'on siyosatining oqibatida nohaq qatl etilishidan boshlab to'g'ri 1956-yil (sobiq KPSSning XX s'ezdidan so'ng shaxsga sig'inishning rasman tugatilishi) gacha bo'lgan davr.

1 Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг ўрганилиши: ўзига хос ёндашув ва қарашлар / Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йўналишлар ва ёндашувлар.

3. 1956-yildan 1985-yil (sobiq Ittifoqning aprel plenumi va oshkoralik, demokratiyaning tantanasi) gacha bo'lgan davr.

4. 1985-yildan hozirgacha bo'lgan davr.

Shu kungacha Fitrat ijodini o'rganganlarning sanog'I 150dan oshdi. Ammo hali hanuz xalqqa taqdim etilmagan ishlari, asarlari mavjud. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat ijodi bir daryo, uning o'zanlari shunchalar ko'pki, yozib adog'oga yetmaysiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг ўрганилиши: ўзига хос ёндашув ва қарашлар / Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йўналишлар ва ёндашувлар. Республика ёш олимларининг анъанавий иккинчи илмий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 187.
2. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1996; Жўракулов У. Ҳ. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. (Ўзбек адабиёти тарихига оид тадқиқотлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Ғаниев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1998; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озошлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1999.
3. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Т.: “SHAMS - ASA” МЧЖ босмахонаси. – Б.51; Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиши тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018.
4. Қурбонова М.М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1993; Саидов Ё.С. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2001